

## TRANSPORT TIZIMIDA LOGISTIK XIZMATLAR BOZORINING SHAKILLANISHI TARIXI

**Mannapova Feruza Faxriddin qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
“Biznes boshqaruvi” kafedrasasi assistenti

ORCID: 0009-0005-9816-1877

E-mail: [mannapovaferuza1995@gmail.com](mailto:mannapovaferuza1995@gmail.com)

### Annotatsiya

Mazkur maqolada transport tizimida logistika xizmatlari bozorining shakllanish jarayoni, uning tarixiy bosqichlari hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalari tahlil etilgan. Transport va logistika faoliyatining iqtisodiyotdagi oʻrni, yuk va yoʻlovchi tashish jarayonlarining integratsiyalashuvi, multimodal tashish tizimlarining shakllanishi ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, logistika vositachilari, transport-ekspeditorlik xizmatlari va raqamlashtirish jarayonlarining bozor rivojiga taʼsiri ochib berilgan. Oʻzbekiston transport tizimini modernizatsiya qilish, logistika markazlarini rivojlantirish va xizmatlar sifatini oshirish yoʻnalishlari koʻrsatib oʻtilgan. Tadqiqot natijalari transport va logistika xizmatlari bozorining samarali faoliyatini taʼminlash hamda milliy transport tizimining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit soʻzlar:** yuk yetkazib berish tizimi, transport xizmatlari bozori, yuk aylanmasi, yoʻlovchi aylanmasi, transport integratsiyasi, yuklarni tashish jarayoni, yuqori texnologiyali transport vositalari, mamlakatlarning transport tizimi, xalqaro aloqalar.

### Аннотация

В статье рассматривается процесс формирования рынка логистических услуг в транспортной системе, его исторические этапы и современные тенденции развития. Раскрыта роль транспортно-логистической деятельности в экономике, проанализированы процессы интеграции грузовых и пассажирских перевозок, а также становление мультимодальных перевозок. Особое внимание уделено развитию логистических посредников, транспортно-экспедиторских услуг и влиянию цифровизации на эффективность рынка. Освещены направления модернизации транспортной системы Узбекистана, развитие логистических центров и повышение качества услуг. Результаты исследования способствуют повышению конкурентоспособности национальной транспортной системы и совершенствованию рынка логистических услуг.

**Ключевые слова:** система доставки грузов, рынок транспортных услуг, грузооборот, пассажирооборот, транспортная интеграция, процесс грузоперевозок, высокотехнологичные транспортные средства, транспортные системы стран, международные отношения.

### Abstract

This article examines the formation of the logistics services market within the transport system, its historical stages, and current development trends. The role of transport and logistics activities in the economy is analyzed, including the integration of freight and passenger transportation and the development of multimodal transport

systems. Special attention is given to the evolution of logistics intermediaries, freight forwarding services, and the impact of digitalization on market efficiency. The study also highlights the modernization of Uzbekistan's transport system, the development of logistics centers, and improvements in service quality. The findings contribute to strengthening the competitiveness of the national transport system and enhancing the efficiency of the logistics services market.

**Keywords:** cargo delivery system, transport services market, cargo turnover, passenger turnover, transport integration, cargo transportation process, high-tech vehicles, transport systems of countries, international relations.

## KIRISH

Transport kompaniyalari asta-sekin yangi iqtisodiy sharoitlarga moslashmoqda, ammo bozor munosabatlarining shakllanishi sharoitida transport tizimining ishlashi va rivojlanishi bilan bog'liq ko'plab masalalar hali qoniqarli yechim topmagan.

O'zbekiston Respublikasi transport tizimining asosiy kamchiliklari qatoriga quyidagilar kiradi: texnik xizmat ko'rsatish darajasining pastligi va ishlab chiqarish bazasining qoniqarsiz holati; infratuzilma obyektlarini rekonstruksiya qilish va qurish hajmining, shuningdek, transport vositalari va boshqa transport uskunalari parklarini to'ldirish hamda yangilash sur'atlarining pasayishi, bu so'nggi yillarda ularning texnik holati va ishlashining sezilarli darajada yomonlashishiga olib keldi. Respublikamizdagi temir yo'l, avtomobil va quvur liniyasi infratuzilmasining, shuningdek, yuk terminallari, omborlar va transport infratuzilmasining notekis rivojlanishi; so'nggi yillarda eksport yuklarini qayta ishlash uchun logistika markazlari sig'imining jadal rivojlanishi natijasida import qilingan yuklarni qayta ishlashga yo'naltirilgan logistika markazlari sig'imining yetishmasligi; mamlakat transport va logistika tizimining rivojlanmaganligi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Logistika fani eng yosh iqtisodiy fan bo'lishiga qaramay, u haqidagi dastlabki qarashlar bir necha asrlar oldin vujudga kelgan. Bugungi kunga kelib logistika sohasi jarayonlarni optimallashtirish, ta'minot zanjirini boshqarish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda logistika tizimlarini takomillashtirish kabi masalalarning yechimini topishni taqozo qilmoqda. Bu esa o'z navbatida iqtisodchi olimlar, soha mutaxassislarini logistika yo'nalishida izlanishlariga, ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatdan uni izchil o'rganishlariga sabab bo'lmoqda. Logistika sohasida eng muhim izlanishlar ta'minot zanjirini boshqarish (Supply Chain Management), logistika jarayonlarini optimizatsiya qilish, transport logistikasi va marshrutlarni optimallashtirish, logistika sohasida qo'llanilayotgan zamonaviy texnologiyalar, ekologik logistika, yashil logistika, logistikada risklarni boshqarish, logistikada avtomatlashtirish va robotlashtirish kabilarda olib borilmoqda. Umumlashtirgan holda aytadigan bo'lsak, bu sohadagi barcha ilmiy izlanishlar logistikaning eng muhim va dolzarb tomonlarini o'z ichiga olgan.

Xalqaro yuk tashuvlar va jahon transport tizimiga A. Arxipov, S. Maslennikov "Xalqaro yuk tashuvlar" kitobida umumiy tavsif berganlar. Shuningdek, xalqaro yuk

tashuvlarining huquqiy-me'yoriy asoslari, xalqaro yuk tashuvining texnik vositalari, tashkil etilishi va dengiz transporti, xalqaro yuk tashuvlarning transport infratuzilmasi, aloqa yo'llari, portlar va terminallarga umumiy ma'lumot berganlar.

Olimlar Tomas Goldsbi, Dipak Ayengar, Rao Sheshanklar transport jarayonlarini rejalashtirish, amalga oshirish, o'lchash va optimallashtirish bo'yicha eng nufuzli va keng qamrovli qo'llanmani yaratdilar. Ular eng yirik logistika assotsiatsiyasi, ta'minot zanjirini boshqarish bo'yicha mutaxassislar kengashi bilan birgalikda yuklarni tejamkor tashish jarayoni uchun eng so'nggi tamoyillar, strategiyalar va yechimlarni birlashtirdilar. Shuningdek, ular o'z izlanishlarida tashish usullari, tashuvlarning bajarilishi, nazorati, outsorsing, TMS texnologiyasi, dengiz, havo transporti va boshqa ko'plab masalalarni ko'rib chiqdilar.

Rossiya olimlari I. Afanasenko, V. Borisova yuk tashuvlarini raqamlashtirish hisobiga transport xizmatlari sifati va samaradorlik darajasini oshirish uchun mavjud bo'lgan axborot xizmatlarini rivojlantirish, yangi integratsiyalashgan raqamli texnologik platformalar yaratish va tadbqiq etish hamda tarmoqni yangi transport vositalari bilan ta'minlash lozim, deya ta'kidlab o'tganlar.

AQSHdagi Bouling Grin universiteti professori M. D. Sarder "Logistics transportation systems" kitobida yuk tashuvlarini boshqarish transport logistikasi eng muhim qismi deb hisoblaydi. Yuk tashuv tarmoqlarini modellashtirish usullari transport tizimlaridan foydalanishni rejalashtirishda qo'llanilib, bu modellar xarajatlarni hisoblash, narxlarni boshqarish va tovarlarni yetkazib berish jadvalini tuzish borasidagi muammolarni tizimga jamlash uchun foydalaniladi, degan fikrlarni bildirgan.

## **METODOLOGIYA**


Tadqiqotning uslubiy asosini transport xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish sohasidagi xorijiy va o'zbekistonlik olimlarning ilmiy ishlarida bayon etilgan fundamental tushuncha va qoidalar tashkil etadi. Muallif, shuningdek, ilmiy jamoalarning transport xizmatlarini ko'rsatish tizimini takomillashtirish, transportning barcha turlaridan cheklangan va cheksiz foydalanish sharoitida ulardan foydalanish samaradorligi muammolarini o'rganish va shakllantirish sohasidagi tadqiqotlar natijalariga tayanadi. Iqtisodiyotda tovarlarni tashish va iste'mol qilishning yangi yo'nalishlarini ishlab chiqish, davlat organlari hisobotlari va statistik ma'lumotlar, qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar, O'zbekiston kompaniyalarining uzoq muddatli rivojlanish dasturlari hamda hisobotlari shular jumlasidandir. Tadqiqot jarayonida funksional yo'naltirilgan qidiruv, iqtisodiy va statistik tahlil, prognozlash va modellashtirishning turli usullari hamda vositalaridan foydalanildi.

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Aholiga va iqtisodiyotga transport hamda ekspeditorlik xizmatlari ko'rsatish darajasi pastligicha qolmoqda, mahalliy kompaniyalar va butun respublikamiz transport tizimining global transport xizmatlari bozorida yetarlicha raqobatbardosh emasligi ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu yuqorida aytib o'tilgan muammolar va

mahalliy transport korxonalarining global bozorda raqobatlasha olish darajasi yetarli emasligi, jumladan, O‘zbekistonning xalqaro tranzit yuk tashishdagi geosiyosiy afzalliklaridan samarali foydalanish bilan bog‘liqdir.

Transport tizimi, transport infratuzilmasi va transport korxonalari boshqaruv jarayonlarini takomillashtirish hozirgi kunning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Transport tizimining tuzilishi 1-rasmda ko‘rsatilgan.



**1-rasm. Transport tizimining tuzilishi<sup>1</sup>**

O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun transport strategiyasiga muvofiq quyidagilar ko‘zda tutilgan:

1. Temir yo‘l transporti sohasida quyidagi tamoyillarni hisobga olgan holda temir yo‘l transporti xizmatlari bozorida sezilarli tarkibiy o‘zgarishlarga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish:

- tarmoq tashuvchisini infratuzilma va transport xizmatlari ko‘rsatuvchi yagona iqtisodiy subyekt sifatida saqlab qolish;

- temir yo‘l transporti bozorining muayyan segmentlarida davlat shartnomalari asosida ishlaydigan mahalliy tashuvchilarning transport bozorida mavjudligi;

- temir yo‘l transporti uchun vagonlar va konteyner xizmatlarini integratsiyalashgan temir yo‘l transporti xizmatidan ajratish, shu bilan birga lokomotiv xizmatlarini ushbu integratsiyalashgan xizmatning bir qismi sifatida saqlab qolish;

- ikki yoki undan ortiq temir yo‘l infratuzilmasi va tashuvchilarni o‘z ichiga olgan temir yo‘l transportini tashkil etishni ta’minlash;

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

- temir yo‘l harakatlanuvchi tarkibi (lokomotivlar, temir yo‘l vagonlari, konteynerlar va boshqalar) egalari institutini yaratish va ularga qo‘yiladigan talablarni, shuningdek, ularning temir yo‘l infratuzilmasi egalari, tashuvchilari va temir yo‘l transporti xizmatlaridan foydalanuvchilar bilan o‘zaro munosabatlarining huquqiy asoslarini belgilash;

- yo‘lovchi va yuk terminali xizmatlari uchun raqobatbardosh bozorni shakllantirish.

## 2. Havo transportida:

- to‘g‘ridan-to‘g‘ri tartibga solishga asoslangan va nazorat qilish usullari bilan bosqichma-bosqich almashtirish orqali monopolistik faoliyat sohasini qisqartirish;

- xizmat ko‘rsatish talablari va shartlarini ishlab chiqishda operator tashkilotlari, foydalanuvchilar va ularning birlashmalarini jalb qilish;

- belgilangan talablarga javob bergan taqdirda davlat idoralari tomonidan operatorlarning bozorga kirishiga cheklovlarni olib tashlash.

## 3. Avtomobil transportida:

- yuklarni avtomobil transportida tashishning yangi qoidalarini ishlab chiqish, tasdiqlash va amalga oshirish;


- eng gavjum yo‘nalishlar bo‘ylab shaharlararo yo‘nalishlarda yuk tashishni tashkil etish bo‘yicha kompleks loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- bo‘sh yo‘nalishlarni qisqartirish, yuklash va tushirish punktlarida transport vositalarining ishbay vaqtini qisqartirish va transport vositalarining yuk tashish sig‘imidan foydalanish darajasini oshirish uchun yirik transport markazlarida oqilona yuk tashish tizimlarini ishlab chiqish.

Multimodal yuk tashish jarayonida barcha transport turlarining o‘zaro ta‘sirini yaxshilash zarur. Shu maqsadda barcha transport turlarining ishini muvofiqlashtirish va ularning yirik transport markazlarida oqilona o‘zaro ta‘sirini ta‘minlash uchun yagona boshqaruvni tashkil etish, shuningdek, aralash (kombinatsiyalangan) yuk tashishni amalga oshirishni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish kerak.

O‘zbekiston Respublikasining barcha subyektlarida yuk tashish xizmatlarini ko‘rsatish uchun transport va logistika markazlari tarmog‘ini yaratish bo‘yicha sa‘y-harakatlar qilinmoqda.

Transport tizimida tovarlar harakati jarayoni (moddiy oqimlarni tashkil etish) yuk egasi tomonidan ham, jalb qilingan vositachilar tomonidan ham bevosita amalga oshiriladigan moddiy va axborot xarakteridagi ko‘p sonli operatsiyalarni o‘z ichiga oladi (2-rasm).



**2-rasm. Transport tizimida tovarlarni taqsimlash jarayoni (material oqimlarini tashkil etish)<sup>1</sup>**

Madaniyatli bozorda vositachilik iqtisodiy jihatdan foydali va ba'zi hollarda tovarlarni taqsimlashning zarur elementi hisoblanadi. Vositachilikning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi formula bilan ifodalanadi:

$$C = (C - P) 0,$$

bu yerda,

C - mijozning (xaridorning) ishni o'zi tashkil qilish xarajatlari;

P - vositachining xizmatlari uchun to'lov.

Vositachilikning samaradorligi, shuningdek, malakali va xabardor vositachining tovarlarni topish yoki eng oqilona narx-sifat nisbati bilan xizmatlar ko'rsatish uchun ko'proq imkoniyatlarga ega ekanligi bilan bog'liq. Shuning uchun so'nggi paytlarda professional vositachilarning roli tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

O'zbekiston transport bozorida talab yuqori bo'lgan bunday xizmat turlariga quyidagilar kiradi:

Bu yerda ikkita xizmat turini alohida ajratib ko'rsatish mumkin: transport va ekspeditorlik. Ekspeditorlik xizmatlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: yuklarni yetkazib berishga tayyorlash - qadoqlash, litsenziyalash, hisob-faktura to'ldirish, tortish, qabul qilish va yetkazib berish, shuningdek, katta yuklarni yig'ish va birlashtirish; hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish va tashkiliy operatsiyalar - transport turini tanlash hamda yetkazib berish ishtirokchilarining ishini muvofiqlashtirish. Tovarlarni uyushgan holda yetkazib berish uchun hujjatlarni taqdim etish ekspeditor tomonidan taqdim etiladigan eng murakkab va ko'p vaqt talab qiladigan xizmatlardan biridir. Bunga quyidagilar kiradi: yuk varaqasini va jo'natish

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

hujjatlarini to'ldirish, yuklarni yo'naltirishni tashkil qilish, yuklarni jo'natish punktlarida tashish uchun taqdim etish va uni belgilangan punktlarda qo'yib yuborish, yuk tashish to'lovlari, to'lovlar va jarimalarni qayta ishlash hamda to'lash; tashish uchun hisob-kitob operatsiyalarini, shuningdek, tegishli operatsiyalarni amalga oshirish. Odatda transport xizmatlari allaqachon ekspeditorlik bo'limiga ega bo'lgan kompaniyalar tomonidan buyurtma qilinadi. Bu holda transport kompaniyasi faqat yuk tashishni amalga oshiradi, shu bilan birga hujjatlar va boshqa tegishli xizmatlarni tayyorlaydi. Ekspeditorlik xizmatlariga talablar juda ko'p bo'lib, ular butun yuk tashish jarayonini to'liq muvofiqlashtirishni o'z ichiga oladi.

**Bojxona rasmiylashtiruv xizmatlari.** Bojxona rasmiylashtiruv logistika faoliyatining ancha o'ziga xos sohasidir. Bu bojxona organlari bilan tartibga solingan huquqiy asosda bevosita ishlashni o'z ichiga oladi, bu kompaniyadan bojxona qonunchiligini puxta biladigan sertifikatlangan bojxona rasmiylashtiruv mutaxassislarini yollashni talab qiladi. Ko'pgina hollarda bojxona rasmiylashtiruv ishlarini ichki tartibda tashkil etish juda qiyin, chunki bu katta moliyaviy va mehnat xarajatlarini talab qiladi. Bundan tashqari, agar bojxona organlari bilan kelishmovchiliklar yoki tovarlarni deklaratsiyalash bilan bog'liq muammolar yuzaga kelsa, jarimalar ko'rinishidagi barcha huquqiy va moliyaviy javobgarlik to'g'ridan-to'g'ri kompaniya zimmasiga tushadi.

**Ombor xizmatlari.** Kompaniya ichida ombor majmuasini (yoki shunchaki ombor maydonini) tashkil etish ancha qimmat ish bo'lib, binolarni sotib olish yoki ijaraga olish, shuningdek, omborni talab qilinadigan standartlarga muvofiq jihozlash uchun katta moliyaviy investitsiyalarni talab qiladi.

**Xarid jarayonlarini muvofiqlashtirish, tovarlarni qadoqlash/qayta qadoqlash, omborxon va boshqalar.** Ushbu turdagi xizmat ko'pincha o'zlarining tashkiliy tuzilmasida keng filial tarmoqlariga (odatda chakana savdo) ega bo'lgan kompaniyalar tomonidan talab qilinadi.

**Keng qamrovli xizmatlar.** Bu yerda bitta logistika operatori pudratchi sifatida ishlaydi. Odatda bu mijoz kompaniyasining butun ta'minot zanjiri bo'ylab logistika biznes jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan barcha resurslarga ega bo'lgan yirik logistika kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu keng qamrovli xizmat ta'minot zanjiri ancha murakkab va bir nechta oraliq bosqichlarni o'z ichiga olgan kompaniyalar tomonidan talabga ega. Asosan, bu tovarlarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga o'tkazish xizmatidir.


Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda o'nlab yillar davomida biznes qoidalari o'rnatilgan va kerakli iqtisodiy natijalarga erishish usullari o'rganildi hamda takomillashtirildi. Eng samarali boshqaruvni doimiy ravishda izlash tovarlarni taqsimlash bozorida turli funksiyalarni bajaradigan logistika vositachilarining paydo bo'lishiga olib keldi, ularni keng miqyosda ikkita asosiy guruhga bo'lish mumkin:

Jismoniy taqsimlash funksiyalari (operatsiyalar);

Qo'llab-quvvatlash funksiyalari (taqdim etilayotgan xizmatlar sifatini sertifikatlash va standartlashtirish; moliyaviy xizmatlar; axborotni qo'llab-quvvatlash;

tartibga solish, konsalting, analitik va xodimlarni qo‘llab-quvvatlash; xavflarni sug‘urtalash va boshqalar).

Jismoniy taqsimlash operatsiyalaridagi vositachilarga turli ixtisoslashgan transport, yuk tashish firmalari, jismoniy taqsimlash kompaniyalari, yuk terminallari kiradi (3-rasm).



### 3-rasm. Transport va logistika vositachilarining tasnifi<sup>1</sup>

Transport bozorining tuzilishini sxematik ravishda uch qavatli piramida sifatida tasvirlash mumkin. Eng katta guruh - oddiy (bitta) xizmatlar ko‘rsatuvchi kompaniyalar - bazada to‘plangan. Ular logistika biznesining muayyan sohalariga, masalan, yuklarni tashish, saqlash va bojxona rasmiylashtiruviga ixtisoslashgan.

Keyingi o‘rinni transport xizmatlari ko‘rsatishga ixtisoslashgan yuk tashish kompaniyalari egallaydi. Logistika bozori ishtirokchilarining eng kichik guruhi piramidaning yuqori qismida joylashgan bo‘lib, ularning vazifasi mijozlarining logistika muammolariga kompleks yechimlarni taqdim etishdir.

Shubhasiz, logistika va yuk tashish turli tushunchalar hamda faoliyat turlaridir, ammo ular bir-biriga mos keladigan sezilarli sohaga ega.

Logistika (keng ma‘noda) - bu optimal resurslar sarfi bilan maqsadlarga erishish uchun ma‘lum bir mikro, mezo yoki makroiqtisodiy tizim ichidagi moddiy oqimlarni va unga bog‘liq axborot hamda moliyaviy oqimlarni boshqarish to‘g‘risidagi fandır.

Logistika (tor ma‘noda, biznes nuqtai nazaridan) - bu moddiy resurslar oqimlarini, tugallanmagan ishlarni, tayyor mahsulotlarni, shuningdek, tegishli axborot, moliya va xizmatlarni integratsiyalashgan boshqarish vositasi bo‘lib, korporativ biznes maqsadlariga optimal resurslar sarfi bilan erishishni osonlashtiradi. Logistika kompaniyasining asosiy maqsadi logistika tamoyillariga asoslanib, mijozlar manfaatlarini ko‘zlab moddiy va unga bog‘liq oqimlarni boshqarishdir.

Yuk ekspeditorlik kompaniyasi faqat tovarlarni tashish, ularni qayta yuklash, yuklarni birlashtirish va taqsimlash, oraliq saqlash, axborot va bojxona rasmiylashtiruvi hamda sug‘urta kabi tegishli xizmatlar bilan bog‘liq bir qator

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

xizmatlarni taqdim etadi. Yuk tashuvchi va qabul qiluvchi bilan hisob-kitoblarni amalga oshiradi.

## **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Chet eldagi yirik kompaniyalar bir vaqtlar o'z tovarlarini o'zlari tashish uchun yuk mashinalari va tirkamalarni agressiv ravishda sotib olishgan. Ular bu arzonroq bo'lishiga ishonishgan. Bu kompaniyalarning transport bo'linmalari shunchalik kengaydiki, ular samarali ravishda yirik tashuvchilarga aylandi. Keyin ularning avtoparklarini saqlash xarajatlari o'zini oqlamayotgani ma'lum bo'ldi. Transport vositalari to'liq yuklanishi kerak bo'lsa-da, ular faqat yarim yo'lda ishlatilgan: konteynerlar ko'pincha to'liq to'ldirilmagan va qaytish safarlari odatda bo'sh bo'lgan. Kompaniyalarning transport bo'limlari qo'shimcha yuklarni qidirish kabi bog'liq bo'lmagan funksiyalarni o'z zimmlariga olishga majbur bo'lishdi. Oxir-oqibat, sanoat firmalarining yuqori menejerlari transport xizmatlarini ixtisoslashgan kompaniyalardan sotib olish foydaliroq ekanligini angladilar. Uzoq masofali va xalqaro transport bozorida ishlab chiqaruvchilarga tegishli transport vositalaridan foydalanishning kamayish tendensiyasi kuzatildi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Аникин, Б.А. Аутсорсинг. Создание высокоэффективных и конкурентоспособных организаций / Б.А. Аникин, О.Б. Аникин, Т.А. Родкина [и др.]. - М. : Инфра-М, 2023. - 187 с.
2. Афонин, А.М. Транспортная логистика: организация перевозки грузов/А.М. Афонин. - М.: ФОРУМ, 2024. - 368 с.
3. Балалаев, А.С. Формирование конкурентоспособных транспортных составляющих логистических систем : монография/А.С. Балалаев-Хабаровск : Изд-во ДВГУПС, 2017. - 223 с.
4. Бауэросокс, Д. Дж. Логистика : интегрированная цепь поставок / Д. Дж. Бауэросокс, Д. Дж. Клосс-2-изд-М. : ЗАО «ОЛИМП-БИЗНЕС», 2005. - 640 с.
5. Беспалов, Р. Спрос на логистического посредника / Р. Беспалов // Логистика и управление. - 2009. - № 11.
6. Большая советская энциклопедия / гл. ред. А.М. Прохоров. - 3-е изд. Т. 1-30. - М. : «Сов. энциклопедия», 1969-78.
7. Василенок, В.Л. Организация интермодальных перевозок: международный и российский опыт / В.Л. Василенок, В.В. Негреева, Я.В. Шевченко // Научный журнал НИУ ИТМО. Серия «Экономика и экологический менеджмент», 2025. - № 4 - С. 70-77.
8. F.Xo'jaev "Logistika" darslik. Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. Toshkent 2022 yil.
9. F.Xo'jaev. I.Muxtorova "Xalqaro logistika". darslik. Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi. Toshkent 2024-yil.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:** Xakimov Ziyodulla Axmadovich  
**Ingliz tili muharriri:** Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich  
**Rus tili muharriri:** Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li  
**Musahhah:** Karimova Shirin Zoxid qizi  
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Sadikov Shoxrux Shuxratovich  
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2026-yil, fevral, 2-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610  
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**